

**Raqamli texnologiyalar vazirligida Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturida nazarda tutilgan
chora-tadbirlarning ijrosi haqida
H I S O B O T**

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan tadbirlar			
1.	“Bir million dasturchi” loyihasini amalga oshirish orqali 15 ming nafar iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash.	2024-yil davomida	Bajarilgan. 2024-yilda “Coursera” platformasining bepul va professional kurslarida o‘qitish hamda iqtidorli yoshlarni IT-kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash va yo‘naltirish bo‘yicha hududlar kesimida samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib Vazirlikning 2024-yil 20-avgust kuni 33-8/5599-son xati bilan Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritildi. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida Coursera platformasi imkoniyatlari va undan samarali foydalanish bo‘yicha hududlardagi ta’lim tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda keng targ‘ibot ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumot Vazirlikning 2024-yil 18- martdagi 33-8/1844-son hamda 2024-yil 20-martdagi 33-8/1918-son xatlari bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. Respublikaning 14 ta hududlarida IT sohasiga qiziquvchi yoshlar bilan 15 dan ortiq uchrashuvlar tashkil etildi. Shuningdek, 12 ta universitetlarga tashrif buyurib, yoshlarga Coursera platformasi imkoniyatlari bo‘yicha o‘quv kurslari va seminarlar tashkil etildi hamda taqdimotlar o‘tkazildi. Mazkur tadbirlarga 5 ming nafardan ortiq yoshlar, jumladan talabalar, maktab o‘quvchilari qamrab olindi. Bundan tashqari davlat tashkilotlari va ta’lim tashkilotlarining rasmiy sahifalari, OAVlari, ijtimoiy tarmoqlar, shu jumladan taniqli IT mutaxassislarning shaxsiy kanallari orqali postlar chiqarildi. Yoshlar ishtirokida 2 marta onlayn vebinarlar o‘tkazildi. Joriy yilning yakuniga ko‘ra uzbekcoders.uz sayti orqali “Coursera” platformasidan <u>ro‘yxatdan o‘tgan</u> foydalanuvchilar soni – 239 ming nafarni tashkil qildi. Bunda, 101 ming nafar yoshlar sertifikatlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsa bulardan <u>professional sertifikatlarni</u> qo‘lga kiritgan yoshlar soni esa 2104 nafarga yetdi. <i>Ma’lumot uchun: Vazirlikning 2024- yil 14- noyabrdagi 34-8/7694-son xati bilan xalqaro sertifikat olgan yoshlarning ro‘yxati Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.</i>
II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH			

57-maqсад: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish			
2.(66)	2024-yilda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi xizmatlar va servislar sonini 700 taga yetkazish.	2024-yil mart	Bajarilgan. Topshiriqqa asosan 2024-yil yakuniga qadar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar va servislar sonini 700 taga yetkazish belgilangan. Bugungi kunda Yagona portal orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar soni 701 taga yetkazildi. <i>Ma’lumot uchun: Vazirlikning 2024-yil 13-dekabrda 23-8/8506 son xati bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi”ga tegishli joriy etilgan xizmat va servislar bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etildi.</i>
3.(67)	Internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash.	2024-yil dekabr	Bajarilgan. Xalqaro internet tarmog‘iga ulanish tezligini oshirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xalqaro Internet tarmog‘iga ulanishning umumiy o‘tkazuvchanligi 4 200 Gbit/s.ga yetkazildi. <i>Ma’lumot uchun: Vazirlikning 2024-yil 4-noyabrda 22-8/7452 son xati bilan Vazirlar Mahkamasiga yakuniga yetkazilgan loyihalar bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etildi.</i>
4.(68)	Keng polosali internet tarmog‘i bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish.	2024-yil dekabr	Bajarilgan. 2024-yil boshidan qo‘shimcha 45,9 ming km dan ortiq optik tolali aloqa liniyalari qurilib, umumiy uzunligi 281 ming km.ga yetkazildi. Qamrov darajasi esa 97,5 foizga yetkazildi.
5.(69)	Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral va temir yo‘llarda mobil internet qamrovini kengaytirish.	2024-yil dekabr	Bajarilgan. Xalqaro ahamiyatga ega magistral avtomobil yo‘llari bo‘ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrov darajasi 90 foizga yetkazildi.
6.(70)	Axborot texnologiyalari sohasida eksport qiluvchi korxonalar soni va eksport hajmini oshirish.	2024-yil dekabr	Bajarilmoqda. 2024-yil 1-dekabr oyi holatiga ko‘ra IT- park rezidentlari soni 2 450 taga yetdi. IT-park eksport qiluvchi rezidentlar soni 2024 yil yanvar oyida 551 tani tashkil etgan bo‘lsa hozirgi kunda ularning soni 985 taga yetkazildi. Xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalar soni 606 tani tashkil etgan. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish 10 barobarni tashkil etmoqda. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 52,0 trln. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilgan.
IV. QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH			

74-maqсад: Aholi farovonligini ta’minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o’rtasidagi “tayanch ko’prik”ga aylantirish			
7.(1)	Mahalla faoliyatini raqamlashtirish.	2024-yil iyul	Bajarilgan. “ Raqamli mahalla ” yagona platformasi ishlab chiqilib mahalla.ijro.uz domeniga joylashtirildi. platforma hamda “ Temir daftar ”, “ Yoshlar daftari ” va “ Ayollar daftari ” platformalari bilan o‘zaro integratsiya qilingan.
78-maqсад: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish			
8.(10)	Saylov jarayonlarini raqamlashtirish uchun “E-SAYLOV” axborot tizimini ishlab chiqish.	2024-yil mart	Bajarilgan. “E-SAYLOV” axborot tizimi ishlab chiqish ishlari yopiq topshiriqqa muvofiq amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur axborot tizimi egasi bo‘lgan Markaziy saylov komissiyasi bilan birgalikda ushbu axborot tizimni loyiha texnik hujjatlari ishlab chiqildi va Raqamli texnologiyalar vazirligining AKT sohasidagi loyiha texnik hujjatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha ekspert komissiyasining va “Kiberxavfsizlik markazi” DUKning ekspert xulosalari olingan. Shuningdek, “UNICON.UZ” MChJ tomonidan Markaziy saylov komissiyasining ko‘rsatmalari asosida “E-SAYLOV” axborot tizimi ishlab chiqildi va sinovdan o‘tkazish ishlari amalga oshirildi. Axborot tizimi Markaziy saylov komissiyasi bilan kelishilgan holda https://e-saylov.uz/ manzilida ishga tushirildi. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasi, Markaziy saylov komissiyasi va Adliya vazirligiga Vazirlikning 2024-yil 25-martdagi 22-8/1948-son xati bilan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumot kiritildi.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son Qarori			
1.	2-ilova 32-band Davlat organlari va tashkilotlarining yoki tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallarini OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilish.	2024-yil dekabr	Bajarilgan. Manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallari shuningdek xabar ro‘znomasida chop etilgan. Topshiriq bo‘yicha Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallari vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlari (Telegram, Instagram, Facebook, Youtube, LinkedIn)da targ‘ib qilindi. Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha 2024- yil 4- oktabrda 12-8/6715-sonli xat bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Adliya vazirligiga axborot berildi.

2.	2-ilova 16-band-band Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari, odob-axloq komissiyalari tashkil etilganligini va faoliyati yo'lga qo'yilganligini tahlil qilish hamda mavjud imkoniyatlar doirasida alohida tuzilmalarni tashkil etish choralari ko'rish.	2024-yil noyabr	Bajarilgan. Raqamli texnologiyalar vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish (ichki nazorat "komplayens" bo'limi, odob-axloq komissiyasi tashkil etilgan va doimiy faoliyati yo'lga qo'yilgan (Buyruq, nizom va faoliyat bilan bog'liq hujjatlar biriktirildi). Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha 2024 yil 4 oktabrda 12-8/6715-sonli xat bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Adliya vazirligiga axborot berildi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 20-dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining (48-2023-son) bayoni			
1.	1.1-band-band Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari hamda mahalliy hokimliklar rahbarlariga barcha tarmoq va sohalarda raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish zarurligi, 2024-yilda mazkur yo'nalishda aniq va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirmagan va keskin o'zgarishlar qilmagan rahbarlar faoliyatiga "korrupsiyaga qarshi kurashmagan" rahbar sifatida baho berilishi ko'rsatib o'tilsin.	2024-yil dekabr	Bajarilgan. Hisob palatasining so'roviga asosan raqamlashtirish bo'yicha vazirlik va idoralar kesimida ma'lumotlar ilova qilinmoqda, Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari hamda mahalliy hokimliklarda raqamlashtirishning umumiy ko'rsatkichlari olinadi va shu tariqa tahlil qilinadi. Bular asosan reyting bahosi, joriy qilingan elektron davlat xizmatlari va ularni ko'rib chiqilishi, shuningdek avtomatlashtirilganligi, bundan tashqari har bir tashkilot o'zining funksiyalarini raqamlashtirilganlik holati o'rganildi. Vazirlik va idoralar bo'yicha "korrupsiyaga qarshi kurashmagan" rahbar sifatida xulosa berish Respublika komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan vazirlik va idoralar rahbarlarining raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlari tahlil qilinib Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 20-dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 48-son bayoni 1.1-bandiga asosan vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari hamda mahalliy hokimliklarning raqamlashtirilganlik holati tahlil qilinib, bir qator tashkilotlarda mavjud kamchiliklar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasiga yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-308 Qarori

1.	Davlat xizmatchilari yoki tashkilotlaridagi korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berish imkoniyati; elektron ishtirok etish bo‘yicha yaqinlashib kelayotgan tadbirlarga jamoatchilikni jalb qilishga qaratilgan e‘lonlar yoki taqvimlar; qaror qabul qilishga doir muhokamarlar bo‘yicha ma‘lumotlar olish uchun onlayn vositalar; elektron ishtirok etish asosida bildirilgan takliflar bo‘yicha yangi qarorlar qabul qilinishi, normativ hujjat imzolanishi yoki xizmatlar joriy etilganligi haqida ma‘lumotlar; Hukumatning ochiq ma‘lumotlar portalini; ochiq ma‘lumotlar portalidagi ma‘lumotlar lug‘ati yoki meta ma‘lumotlar; Hukumatning ochiq ma‘lumotlari to‘plamidan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma yoki qo‘llanmaning mavjudligi va boshqalar.	2024-yil yanvar	<u>Bajarilgan</u> Yo‘l xaritasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-308-son qarorning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Elektron hukumat tadqiqoti" hisobotining Onlayn xizmat ko‘rsatish indeksidagi ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun mas‘ul ishchi guruhiga kiritilgan vazirlik va idoralar hamkorligida ishlab chiqilgan hamda vazirlik va idoralar uchun belgilangan tegishli xizmatlarni onlayn tarzda joriy etilishi bandlar bo‘yicha Yo‘l xaritasida belgilangan topshiriqlar "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan kelishish uchun topshiriq sifatida mas‘ul vazirlik va idoralarga yuboriladi. Shuningdek, mazkur yo‘l xaritaning deyarli barcha bandlari Onlayn xizmat ko‘rsatish indeksidagi ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun mas‘ul ishchi guruhi tomonidan amalga oshiriladi. «Elektron hukumat tadqiqoti» hisobotining Onlayn xizmat ko‘rsatish indeksidagi ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun mas‘ul ishchi guruhi tarkibiga kirgan vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Onlayn xizmatlarni ko‘rsatish indeksi doirasidagi indikatorlar bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra xizmatlarni onlayn shaklga o‘tkazish, birinchi navbatda mobil ilovada joriy etish va mavjudlarini to‘liq avtomatlashtirish, soddalashtirish bo‘yicha reytingda yuqori natijaga ega davlatlarning ijobiy tajribasiga tayangan holda aniq choralarni o‘z ichiga olgan “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi (ilova qilinadi). Tahliliy ma‘lumot va Yo‘l xarita Vazirlikning 2024-yil 10-yanvardagi 23-8/199-son xati orqali “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasiga taqdim etilgan.
----	--	--------------------	--

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi PQ-5263 son Qarori

1.	2-ilova 11-band-band Axborot va axborotlashtirish sohasi bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish	2024-yil dekabr	<u>Bajarilgan.</u> Topshiriq bo‘yicha 2024-yil davomida axborotlashtirish sohasi bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilib, natijalari bo‘yicha 2024-yil 2- dekabrdagi 26-8/8157-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga axborot berildi. Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan 2024-yil davomida axborotlashtirish sohasi bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazildi. Natijalari yuzasidan Vazirlikning 2024 yil 2 dekabrdagi 26-8/8157-son xati bilan Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi. O‘tkazilgan normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan ma‘lumotlar ilova qilinadi.
----	---	--------------------	---

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023 yildagi PF-200-son Farmoni

1.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining «Call-markaz» faoliyatini takomillashtirish.	2024-yil fevral	Fuqarolar tomonidan korrupsiya haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi «Call-markaz»ga qilingan qo‘ng‘iroqlarni yozib olish va ovozli xabar qoldirish imkoniyati yaratilgan.
2.	Davlat organlarining ochiqlikni ta‘minlashga mas‘ul xodimlarini onlayn o‘qitishga mo‘ljallangan «Open data» elektron ta‘lim platformasini ishga tushirish.	2024-yil fevral	Elektron ta‘lim platformasi dasturiy ta‘minotini yaratish hamda ochiqlikni ta‘minlash sohasidagi ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rgangan holda o‘quv modullarini ishlab chiqish, shuningdek, platforma orqali davlat organlari va tashkilotlari mas‘ul xodimlarini o‘qitishni tashkil etilgan.
3.	Davlat xaridlarini amalga oshirishda yagona yetkazib beruvchilarni belgilashning shaffof tizimini yaratish.	2024-yil yanvar	1. Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish haqidagi arizani ko‘rib chiqish reglamentini ishlab chiqilgan. Bunda: amaldagi qonunchilikka o‘zgartirish kiritgan holda Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish haqidagi arizani ko‘rib chiqish uchun vakolatli organ va tegishli mas‘ul vazirlik, idoralarning mas‘ullaridan iborat komissiyani tuzish hamda ushbu komissiya ish faoliyatini «Xarid.mf.uz» platformasi orqali elektron tarzda ko‘rib chiqish mexanizmini joriy qilindi; yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish haqidagi ariza va unga ilova ma‘lumotlarni Davlat xaridlari markaziy axborot portalida ochiq e‘lon qilish, majburiy jamoatchilik muhokamasini o‘tkazish, mazkur ariza bo‘yicha jamoatchilik vakillarida o‘z fikr va e‘tirozlarini portalda qoldirish imkoniyatini yaratildi; yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish haqidagi arizani ko‘rib chiqish natijalarini (qanoatlantirilganlar va rad etilganlar asoslari) Davlat xaridlari markaziy axborot portalida ochiq e‘lon qilish imkoniyati yaratilgan. 2. Yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish jarayonlarini elektronlashtirish, ya‘ni maxsus axborot portali orqali tuzilishini joriy qilgan.
4.	Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida outsorsing xizmatlari ko‘rsatishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar oldini olish.	2024-yil mart	Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida outsorsing xizmatlari ko‘rsatishning yagona tartibini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Bunda: outsorserlarni tanlab olish, shartnoma tuzish va hisob-kitoblarni amalga oshirishning ochiq va shaffof mexanizmlarini, shu jumladan yagona elektron platforma joriy etish, outsorser va buyurtmachining huquqlari va majburiyatlari, outsorsing xizmati ko‘rsatilishi yuzasidan nazorat va monitoring qilish mexanizmlari; outsorsing xizmatlarini tashkil etish va o‘tkazishda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish mexanizmlari belgilandi.

5.	«O‘zbekiston — 2030» Strategiyasidan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish bo‘yicha davlatning istiqboldagi asosiy yo‘nalishini belgilash.	2024-yil mart	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan milliy strategiya ishlab chiqilgan. Korrupsiya kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omillarni aniqlash va ularni tahlil qilingan va amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan mexanizmlarning samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish ishlari tegishli tartibda olib borilgan.
6.	Vazirlik va idoralarning inson resursini rivojlantirish va boshqarish faoliyatini raqamlashtirish.	2024-yil dekabr	Vazirlik kadrlar bilan ishlash yo‘nalishidagi faoliyat https://vacancy.argos.uz/ elektron bazasi orqali amalga oshirilmoqda.
7.	Korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish.	2024-yil davomida	Raqamli texnologiyalar vazirligi 2023-yilda markaziy apparatining 163 nafar, 2024-yilda 286 nafar xodimlarining bilim va malakasini umumiy va maxsus o‘quv kurslari orqali o‘qitilgan. Barcha xodimlarning ushbu o‘quv jarayonlarda olgan bilimlari test sinovlari orqali baholab kelingan. Ishga yangi qabul qilingan 31 nafar xodimlar vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlari bilan tanishtirilgan. Bundan tashqari vazirlikning barcha xodimlari korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo‘linma tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishtirilgan (Bayonnoma №8). Vazirlik tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida yil davomida 12 ta targ‘ibot tadbirlari (<i>Ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy targ‘ibot - 4 (VEB sayt va boshqa elektron axborot vositalarida-2, gazeta jurnallarda-2), Og‘zaki huquqiy targ‘ibot - 8 (ma‘ruzalar-2, davra suhbatlari-2, seminarlar-4), Manzilli targ‘ibot-8 (mehnat jamoalarida-8), tinglovchilar soni - 900 nafar, ko‘rgazmali huquqiy targ‘ibot-6, animatsion grafika-4)</i> o‘tkazilgan.

8.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, bu borada erishilgan natijalarni muhokama qilish va tushuntirishga bag'ishlangan targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish.	Alohida reja jadvalga asosan	Vazirlik 2024-yilda 286 nafar xodimlarining bilim va malakasini umumiy va maxsus o'quv kurslari orqali o'qitgan. Barcha xodimlarning ushbu o'quv jarayonlarda olgan bilimlari test sinovlari orqali baholanib kelingan. 2024-yil 8-yanvarida "O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha 2024-yil rejasi" vazir tomonidan tasdiqlangan bo'lib, barcha choraklarda yo'nalishlar bo'yicha bo'linmalar xodimlari o'z bilim va malakalarini oshirib borishgan. Bundan tashqari, vazirlikning 25 nafar xodimlar 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy davlatlarda tajriba almashishga yuborilgan, 15 nafar xodimlar malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, treninglar va seminarlarga jalb etilgan. Ta'kidlash joizki, vazirlik xodimlari boshqa vazirlik va idoralar tomonidan tashkil etilgan maxsus o'quv dasturlarida ham ishtirok etib kelishgan. Xususan, Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish instituti tomonidan tashkillashtirilgan masofaviy o'qishda 16 nafar xodim qatnashib sertifikatlarga ega bo'lishgan. O'quv seminarlarda 34 nafar xodim, ma'rifat soatida 105 nafar xodimlar qatnashishgan.
----	--	---------------------------------------	--